Zamonaviy dunyo murakkab va ko'p qirrali bo'lib, eng muhimi, u tinimsiz taraqqiyotda. Texnologiya tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda, bu esa jamiyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot, ayniqsa, qimmatli ma'lumot bo'lib qoldi. Shuningdek, raqamli huquq ham bugungi kunda barcha sohalarda o'z dolzarbligini aks ettirmoqda. Huquqda raqamli texnologiyalarni qo'llash muammolarini, shuningdek, davlat hokimiyati organlarini raqamli transformatsiya qilish imkoniyatlarini o'rganish axborot sohasida alohida amalga oshirilmaydi, shu sababli huquq sohalari kesimida alohida yondashuvni talab qiladi (Tabolina & Tabolin, 2021).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev (2025a) "Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga – sun'iy intellekt davriga dadil qadam qo'ymoqda. Qaysi soha bo'lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo'ladi", – deb alohida ta'kidlagandi. Shu bilan birga, vazirlar va tarmoq rahbarlarining raqamlashtirishga mas'ul o'rinbosarlari bir vaqtning o'zida sohada sun'iy intellektni rivojlantirishga ham javobgar bo'lishi belgilandi. Shahar va tumanlarda ham hokimlarning raqamlashtirish va sun'iy intellekt bo'yicha maslahatchisi lavozimi kiritiladi. Kelgusi yildan vazirlik va hududlarda sun'iy intellektni joriy etish holatini baholaydigan reyting tizimi ishga tushiriladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi PF-204-son Farmoni bilan imzolangan "Raqamli prokuratura – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Prezident Farmonining asosiy maqsadlari etib quyidagilar belgilangan (President of the Republic of Uzbekistan, 2025):

- 2030-yilga qadar ilg'or xalqaro tajriba asosida prokuratura organlari faoliyatining barcha yo'nalishlarini avtomatlashtirish hamda shaffofligi va tezkorligi darajasini keskin oshirish;
- prokuratura hamda boshqa davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi sifati va tezkorligini oshirish;
- tergov va prokuror nazorati jarayonlarini elektron shaklga o'tkazish.

Shuningdek, Sh.M. Mirziyoyev (2025b) korrupsiyaga qarshi kurashish choralari muhokamasida prokuratura tizimini to'liq raqamlashtirish va barcha sohalar ustidan raqamli nazorat o'rnatish zarurligini ta'kidladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-martdagi "O'zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini

takomillashtirish to'g'risida"gi PF-38-son Farmonida (President of the Republic of Uzbekistan, 2026) kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini samarali himoya qilish, axborot infratuzilmasining barqarorligini ta'minlash, raqamli iqtisodiyot tarmoqlarida kiberxavfsizlikni yanada kuchaytirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish, shuningdek, fuqarolarda kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish va mustahkamlash kabi maqsadlar belgilanishi tadqiqot ishimizning bugungi kunda dolzarbligini ifodalaydi.

Asosiy qism

Bugungi kunda raqamlashtirishning yuqori sur'atlarda rivojlanishi prokurorning jinoiy ishlarni yuritishdagi nazorat faoliyatini optimallashtirish imkonini beradi. A. Moiseyevning ta'kidlashicha, prokuratura organlari faoliyati uchta ustuvor yo'nalishda raqamli o'zgartirishni nazarda tutadi (Moiseev et al., 2021):

- yuqori texnologiyali nazorat;
- raqamli infratuzilma;
- ishonch muhiti.

Yuqori texnologiyali nazoratga o'tish prokuratura organlari tomonidan vakolatlarni bajarish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Yuqori texnologiyali nazorat raqamli infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, u prokuratura organlarining fuqarolar, tashkilotlar va davlat organlari bilan universal raqamli muhit yaratish asosida o'zaro ta'sirini ta'minlashi kerak. Shu bilan birga, yangi universal raqamli muhit nafaqat prokuratura tizimi ichida, balki davlat organlarining boshqa tizimlari bilan, shuningdek, fuqarolar bilan ham o'zaro ta'sirni qo'llab-quvvatlashi kerak.

Prokuratura organlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishdan ko'zlangan asosiy maqsad sifatida berilgan yuqoridagi belgilangan 3 ta yo'nalish bir-birini to'ldirib takomillashtirib boruvchi maqsadlardir. Ya'ni prokuratura faoliyatiga yuqori texnologiyalarning tatbiq etilishi samarali huquqiy nazoratni, ushbu texnologik nazorat esa prokuratura faoliyatidagi raqamli infratuzilmani takomillashtiradi. Ushbu jarayon prokuratura organlari bilan fuqarolar o'rtasida ishonch muhiti shakllanishiga olib keladi.

A. Ovchinnikov (2019) fikricha, davlat organlari faoliyatini raqamli transformatsiya qilish boshqaruv jarayonlari ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga, aholining hukumatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, davlat sektorining o'zini nazorat qilishini kuchaytirishga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi faoliyatini optimallashtirishga, korrupsionerlarning imkoniyatlarini cheklashga va fuqarolarni qaror qabul qilishda qatnashishga jalb etishga yordam berishi masalalariga e'tibor qaratgan.

Fikrimizcha, raqamli texnologiyalar orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga huquqiy baho berish imkoniyati vujudga keladi. Shuningdek, korrupsiyaviy omillar kamayadi hamda bu xalq nazorati imkoniyatlari kengayishga olib borishi mumkin.

V.V. Bessonova hamda A.S. Jukovalarning fikricha esa raqamli texnologiyalar jamiyatdagi asosiy muammolarni hal qilish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi (Bessonova & Zhukova, 2012).

M. Boboyevning (2023) ta'kidlashicha, prokuratura organlari raqamli transformatsiyasining o'ziga xos jihatlari prokuratura tizimini optimallashtirish, kuchlarni birlashtirish, ishonchlilik, yagona ma'lumotlar modeli, standartlashtirish, virtuellashtirish, axborot xavfsizligi kabi muhim tamoyillarga asoslangan holda o'z faoliyatini tashkil etishida aks etadi. Prokuratura xodimi o'zining avtomatlashtirilgan ish joyidan turib onlayn-rejimda tergovchi qanday tergov harakatlarini amalga oshirayotganini kuzatishi va qonunbuzarliklarga zudlik bilan munosabat bildirishi mumkin. Prokuratura tizimida raqamlashtirish muhim masalalar bo'yicha zudlik bilan qarorlar qabul qilish imkonini beradi, protsess ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilishni yaxshilaydi, korrupsiya va turli suiiste'mollikni kamaytiradi.

Fikrimizcha, prokuraturani raqamlashtirish fuqarolar hamda davlat hokimiyati organlariga qulay imkoniyatlar yaratish bilan birga, prokuratura tizimini takomillashtiradi, ish yuklamasini kamaytiradi, raqamli huquqiy nazoratni ta'minlash natijasida tergov organlari faoliyati ustidan samarali nazoratni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi.

Zamonaviy texnologiyalar prokurorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, ularning ko'p funksiyali faoliyati ish hajmi doimiy o'sib boradigan sharoitda amalga oshiriladi, bu esa rivojlanish strategiyasini takomillashtirish usullari va texnikasini takomillashtirishni talab qiladi (Khatov, 2014).

Raqamli texnologiyalarning, jumladan, sun'iy intellekt, "katta ma'lumotlar"dan foydalanishga asoslangan texnologiyalarning joriy etilishi, birinchi navbatda, prokurorlik faoliyatining axborot-tahliliy sohasida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi (Khatov, 2015).

Nazarimizda, raqamli texnologiyalaridan biri – sun'iy intellektning prokuratura organlari faoliyatiga tatbiq etilishi katta ma'lumotlar bazasini yaratish imkoniyatini vujudga keltiradi. Ushbu katta ma'lumotlar bazasi katta imkoniyatlar bilan birga, yuqori axborot-tahlil ko'nikmalarini ham talab qiladi.

D. Hu (2025) ta'kidlaganidek, nazoratning raqamli vakolatlarini kengaytirishning asosiy mohiyatini qat'iy anglashimiz, huquqiy nazoratni kuchaytirishga, raqamli prokuratura amaliyotini takomillashtirishga, shuningdek, muhim nazorat ishlarini ko'rib chiqishga qaratilgan sa'y-harakatlarimizni huquqiy nazoratning asosiy vazifasini to'liq bajarishga qaratishimiz kerak.

Fikrimizcha, prokuratura organlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni kengaytirishning asl mohiyatini, ya'ni tatbiq etiladigan texnologiyalar qanday munosabatlarni tartibga solishi, qaysi tarmoqlarni raqamlashtirish zarurligini tushunishimiz kerak. Shuningdek, eng muhim huquqiy nazorat obyektlarini raqamlashtirganda uning faoliyati ustidan to'liq nazorat amalga oshirilishi kerak, deb hisoblaymiz.

M. Karchevskiy o'zining "Sun'iy intellekt va jinoyatchilikning oldini olish" asarida sun'iy intellekt vositalarining jinoyatchilikning oldini olishdagi samaradorligini, ayniqsa, katta ma'lumotlarni tahlil qilish va bashoratli modellashtirish imkoniyatlari orqali asoslab bergan (Karchevskiy, 2020). Ushbu yondashuv huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini soddalashtirishda sun'iy intellektning operatsion afzalliklarini ko'rsatib bersa-da, algoritmik shaffoflik va aybsizlik prezumpsiyasi kabi fundamental huquqiy tamoyillarning buzilishi xavfini e'tibordan chetda qoldiradi. Shuningdek, muallif huquqni muhofaza qilish organlarida sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish qat'iy huquqiy va axloqiy mezonlarga asoslanishi, tizim shaffofligi, tushunarligi va javobgarligini ta'minlashi lozimligini ta'kidlaydi.

Xuddi shunday, Xolina va Shramko sun'iy intellektni jamoat xavfsizligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish vositasi sifatida ko'rib chiqadilar, kuzatuv tizimlari va avtomatlashtirilgan monitoring texnologiyalariga urg'u beradilar (Xolina & Shramko, 2020). Biroq ularning yondashuvi ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash bilan bog'liq maxfiylik oqibatlarini va huquqiy muammolarga yetarlicha e'tibor qaratmaydi. Ularning ta'kidlashicha, shaxsiy ma'lumotlarga yoki jamoatchilik nazoratiga har qanday aralashuv mutanosiblik va zarurat nuqtayi nazaridan baholanishi kerak. Ular bu fikri bilan Gonsales Fusterning (González Fuster, 2020) tavsiyalarini takrorlaydi, Fuster Yevropa Ittifoqida huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga sun'iy intellektni joriy etish va uni boshqarish tizimini shakllantirishda insonning asosiy huquqlarini himoya qilish muhimligini ta'kidlaydi.

Huquqni muhofaza qilish organlarida sun'iy neyron tarmoqlaridan foydalanishga e'tibor qaratadi, ularning moslashuvchanligi va o'rganish qobiliyatlarini ta'kidlaydi. Muallif o'z yondashuvida, ayniqsa, jinoiy odil sudlov kontekstida algoritmik javobgarlikni ta'minlash va qabul qilinadigan qarorlarning ham talqin qilinishi (tushunarli bo'lishi), ham ular ustidan e'tiroz bildirilishi mumkinligi haqidagi qonuniy talabni ustuvor vazifa qilib qo'yadi (Maietnyi, 2021).

Sun'iy intellekt texnologiyalarini huquqni muhofaza qilish jarayonlariga integratsiya qilish transformatsion salohiyatni taqdim etadi. To'g'ri qo'llanganda, sun'iy intellekt operatsion samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi, inson xatolarini kamaytirishi, murakkab qarorlar qabul qilishda yordam berishi, resurslarni yaxshiroq taqsimlashni ta'minlashi va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha proaktiv strategiyalarni osonlashtirishi mumkin.

Sun'iy intellekt kundalik amaliy vazifalarni avtomatlashtirish orqali huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini ortiqcha yuklamadan xalos etadi va ularga strategik funksiyalar hamda

jamoatchilik bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot qilishga ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi. Shunga qaramay, tizimning qo'llanishi muayyan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda. Ilmiy doiralarda e'tirof etilganidek, texnologiyalarning texnik ustuvorligi ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplaridan ustun bo'lmasligi kerak. Ayniqsa, jinoyatchilikni bashorat qilish, yuzni identifikatsiya qilish va xavf darajasini aniqlovchi SI tizimlari jamoatchilik nazoratisiz joriy etilsa, jamiyatdagi mavjud stereotiplar va tarafkashliklarni institutsional darajada chuqurlashtirib yuborishi mumkin.

Turli yurisdiksiyalardagi huquqni muhofaza qilish organlari sun'iy intellektdan uchta asosiy usulda foydalanishi kuzatilgan:

- xodimlarga ish faoliyati va samaradorlikni oshirishda yordam berish;
- insonning kognitiv va analitik qobiliyatlarini oshirish;
- cheklangan va nazorat qilinadigan holatlarda, odamlar tomonidan an'anaviy ravishda bajariladigan muayyan vazifalarni to'liq avtomatlashtirish.

Sun'iy intellektdan foydalanishning mazkur yo'nalishlari, ayniqsa, insonning asosiy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq holatlarda, o'ziga xos huquqiy hamda axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois, huquqni muhofaza qilish faoliyatiga sun'iy intellektni joriy etish shaffoflik, mustaqil nazorat va jamoatchilik oldidagi hisobdorlik prinsiplarini o'zida aks ettirgan aniq huquqiy asoslarga tayanishi shart. Ushbu qonunchilik asoslari, o'z navbatida, tizimli ravishda audit o'tkazish mexanizmlarini, algoritmik qarorlarning tushunarligini (ayblov asoslarini) hamda huquqlari buzilgan shaxslarga yetkazilgan zararining qoplanishini to'liq kafolatlashi lozim.

Xalqaro amaliyotning qiyosiy tahlili, ayniqsa, o'rnatilgan tartibga solish rejimlariga ega yurisdiksiyalarda milliy strategiyalarni shakllantirish uchun qimmatli tushunchalar berishi mumkin. Muhimi, bunday tadqiqotlar huquqshunos olimlar, texnologlar, amaliyotchilar va fuqarolik jamiyati manfaatdor tomonlari o'rtasidagi hamkorlikni o'z ichiga olgan fanlararo bo'lishi kerak. Oxir-oqibat, sun'iy intellekt faqat mas'uliyatli, shaffof va demokratik qadriyatlar va inson huquqlarini himoya qilish bilan to'liq muvofiq ravishda amalga oshirilsagina, huquqni muhofaza qilish organlari uchun qimmatli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin (Nalutsishin, 2025).

Ayrim soha vakillarining ta'kidlashicha, prokuratura organlari faoliyatini axborot bilan ta'minlash murakkab hodisa bo'lib, u maqsadlarga erishish, vazifalarni bajarish va prokuratura organlariga yuklatilgan funksiyalarni bajarish imkoniyatini beruvchi prokuratura organlarining axborot resurslari tizimini yaratishga qaratilgan. Bundan tashqari, prokuratura organlari faoliyatini axborot bilan ta'minlash prokuratura organlarining samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish, saqlash, tahlil qilish, uzatish va ulardan foydalanishni tashkil etish, shuningdek, ushbu ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash; jamoatchilikni prokuratura tizimida sodir bo'layotgan jarayonlar, ularning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi haqida to'liq, ishonchli va tegishli ma'lumotlar bilan ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan (Lesko, 2022).

Xorij olimlarining tadqiqotlarida prokuratura organlari faoliyatini axborotlashtirish katta istiqbolga ega ekanligi asoslangan. Xususan, Ukraina prokuratura tizimi misolida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yaxlit foydalanish uchun eng maqbul tashkiliy, huquqiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Axborot texnologiyalari rivojlanishining hozirgi bosqichi shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy prokuratura organlari avtomatlashtirilgan tizimlar va ilg'or kompyuter texnologiyalarisiz o'z funksiyalarini samarali bajara olmaydi (Lesko, 2022).

Germaniya jamoat boshqaruvi sohasida, jumladan, huquqiy sektorda sun'iy intellektni integratsiya qilishda yetakchi bo'lib kelmoqda. Prokuratura organlarida sun'iy intellekt asosan ma'muriy samaradorlikni oshirish va huquqiy tahlilni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi (Satorov, 2025).

Xorijiy prokurorlar axborot va tahliliy faoliyatning turli usullarini qo'llaydilar. Masalan, Kanada Bosh prokurorining veb-saytida nafaqat o'z mamlakatida, balki AQSH, Avstraliya, Niderlandiya, Buyuk

Britaniya va Yangi Zelandiya kabi mamlakatlarda ham adolatsiz hukmlar sabablarining batafsil qiyosiy tahlilini o'z ichiga olgan tahliliy hisobot mavjud. Ushbu tahlil natijalariga, prokurorlik va sud amaliyotining aniq misollariga asoslanib, ularga sabablar va sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kanadada jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish uchun prokuratura xizmati faoliyati ham tahlil qilinadi. Masalan, yillik ish faoliyati to'g'risidagi hisobotlarda turli ko'rsatkichlar, jumladan, sifat ko'rsatkichlari, masalan, prokurorlarning turli murakkablikdagi ishlarni tergov qilishga sarflaydigan vaqti tahlil qilinadi. Hududiy tahlil asosida Kanadaning uchta chekka shimoliy hududida jinoyatchilikka qarshi kurashishga ustuvor ahamiyat beriladi. Shuningdek, prokurorlarni o'qitish va malakasini oshirish masalalariga e'tibor qaratilganini ta'kidlash joiz, bu ham jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha prokuror choralarning samaradorligi, sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rossiya Federatsiyasi Bosh prokuraturasi veb-saytida funksional faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar mavjud. Raqamli texnologiyalardan foydalanish xorijiy prokurorlarning axborot-tahliliy faoliyatida tobora ahamiyat kasb etmoqda. Neyron tarmoq texnologiyalarining joriy etilishi bilan axborot-tahliliy faoliyat sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi. Prokurorlarni nafaqat axborot-tahliliy faoliyat sohasida, balki faoliyatning barcha boshqa sohalari va yo'nalishlarida ham sezilarli o'zgarishlar kutmoqda. Elektron jinoyat ishlari, ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha sud jarayonlari, interaktiv elektron jinoyat va huquqbuzarlik xaritalari, shuningdek, ularni aniqlash va bashorat qilish uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xalqaro amaliyotlar etalon bo'lib xizmat qilishi mumkin.

MDH mamlakatlari orasida Qozog'iston Respublikasi prokurorlik faoliyatida axborot-tahlil tizimini raqamlashtirish bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Xususan, "Qozog'iston Respublikasida jinoyatlar monitoringi" axborot-tahlil tizimi doirasida joriy etilgan huquqiy statistika dasturi jinoyatchilik darajasi anomal (keskin) ravishda yuqori bo'lgan hududlarni avtomatik tarzda aniqlash imkonini beradi. Mazkur dastur hududlar kesimida jinoyatchilik ko'rsatkichlarini o'zaro qiyoslab, dinamikadagi ijobiy yoki salbiy o'zgarishlarni tahlil qilib boradi. Tizimning eng muhim afzalliklaridan biri – "Xavf xaritasi" ("Karta riskov") axborot-tahliliy qarorlarni qo'llab-quvvatlash moduli orqali jinoyatchilik ko'rsatkichlarini geografik va statistik jihatdan prognoz qilish imkoniyati mavjudligidir (Khatov, 2019).

O'zbekiston Respublikasida ham prokuratura organlari faoliyatini raqamli transformatsiya qilishning asosiy maqsadlari etib quyidagilar belgilandi:

- 2030-yilgacha ilg'or xalqaro tajriba asosida prokuratura organlari faoliyatining barcha yo'nalishlarini avtomatlashtirish;
- tergov va prokuror nazorati jarayonlarini elektron shaklga o'tkazish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli prokuratura – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga (President of the Republic Uzbekistan, 2025) ko'ra, "Raqamli prokuror" axborot tizimlari kompleksi prokuratura organlari faoliyatiga joriy etiladi.

Mazkur tizim davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning konstitutsiya va qonunlarga muvofiqligini masofaviy nazorat qilish imkonini beradi. Shuningdek, nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan nazorat tadbirlarida qonunlarga rioya etilishi ustidan monitoring olib borish maqsadida "Tekshiruvlarning yagona elektron reyestri" axborot tizimining sinov versiyasi ishlab chiqiladi.

2026-yil 1-dekabrda ushbu tizimning to'liq versiyasi ishga tushiriladi. Farmonga ko'ra, "E-tergov" axborot tizimi joriy etiladi va uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi, jumladan:

- jinoyat ishi yurituvining barcha bosqichlarini elektron shaklga o'tkazish;
- sud ekspertizasini onlayn rejimda tayinlash;
- moddiy zararni hisobga olish va undirish jarayonlarini monitoring qilish.

Bundan tashqari, Huquqni muhofaza qilish akademiyasida 2026/2027-o'quv yilidan har yilgi qabul parametrlari (kvotalari) doirasida kunduzgi ta'lim shaklida o'qish muddati 4 yilni tashkil

etadigan “Kiberhuquq” bakalvriat ta’lim yo’nalishi joriy etiladi. Mazkur farmon va Strategiyadagi vazifalarning amalga oshirilishini ta’minlash uchun Bosh prokuraturaning Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va axborot xavfsizligini ta’minlash boshqarmasi negizida Bosh prokuraturaning Raqamli texnologiyalar markazi tashkil etiladi.

Xulosa

Yuqoridagi olimlarning fikr-mulohazalari hamda ilmiy manbalarni o’rganib, shuni xulosa qilish mumkinki, prokuratura organlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish masalasi bugungi kunda ilmiy hamjamiyat oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki raqamli texnologiyalarni tatbiq etishdan oldin ushbu faoliyatning rahbariy tamoyillarini, ya’ni prinsiplarini ilmiy jihatdan tadqiq etish maqsadga muvofiq. Yuqori texnologik nazorat, raqamli tizimni rivojlantirish, ishonch muhitini mustahkamlash prinsiplarining amalda joriy etilishini qo’llab-quvvatlaymiz. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni prokuratura organlarining ma’muriy boshqaruv, axborot tahlil markazlariga tatbiq etish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalari huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining kognitiv va analitik qobiliyatlarini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Lekin muhim qarorlarni qabul qilishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanmaslikni tavsiya qilgan bo’lardik.

REFERENCES

Bessonova, V. V., & Zhukova, A. S. (2012). K voprosu ob uchastii institutov grazhdanskogo obshchestva v protivodeystvii korruptsii [On the issue of participation of civil society institutions in combating corruption]. *State Power and Local Self-Government*, 10, 9–13.

Boboyev, M. (2023). *Prokuratura organlari faoliyatini raqamli transformatsiya qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish* [Improving the organizational and legal framework for digital transformation of the activities of procuracy authorities] (Doctoral dissertation). TSUL.

González Fuster, G. (2020). *Artificial intelligence and law enforcement: Impact on fundamental rights*. European Parliament’s Policy Department for Citizens’ Rights and Constitutional Affairs.

Hu, D. (2025, May 13). *Jiasu rengong zhihui de yanjiu yu yingyong, shenhua jiancha jiguan de shuwei zhuanxing* [Accelerating the research and application of artificial intelligence, deepening the digital transformation of procuratorial organs]. Supreme People’s Procuratorate of the People’s Republic of China. https://login.12309.gov.cn:8443/spp/llyj/202505/t20250513_695451.shtml

Karchevskiy, M. V. (2020). Shtuchnyi intellekt ta’protydiia zlochynnosti [Artificial intelligence and crime prevention]. In *Vykorystannia tekhnolohii shtuchnoho intelektu u protydii zlochynnosti: Materialy naukovo-praktychnoho onlain-seminaru* (Kharkiv, November 5, 2020) (pp. 32–43). Pravo.

Khatov, E. B. (2014). Problemy i printsipy vybora prioritetov prokurorskoj deyatelnosti [Problems and principles of choosing priorities of prosecutorial activity]. *Sovremennoe pravo*, (10), 55–59.

Khatov, E. B. (2016). Voprosy informatsionnogo obespecheniya prokurorskogo nadzora za ispolneniem zakonodatelstva o protivodeystvii korruptsii [Issues of information support for prosecutorial supervision over the enforcement of anti-corruption legislation]. *Journal of Foreign Legislation and Comparative Law*, (4), 34–39. <https://doi.org/10.12737/21246>

Khatov, E. B. (2019). Information and analytical activities of the prosecutor’s offices of foreign countries. *Russian Journal of Legal Studies*, 6(4), 103–107.

Khatov, E. (2020). Information and analytical activities of prosecutor’s offices in foreign countries. *Russian Journal of Legal Studies*, 6, 103–107. <https://doi.org/10.17816/RJLS20417>. Lesko, N. (2022). Modern information technologies in the activities of the prosecutor’s office. *Bulletin of the National University “Lviv Polytechnic”. Series: Legal Sciences*, 3(35), 155–160.

Kholina, V. V., & Shramko, S. S. (2020). Vykorystannia vysokykh tekhnolohii u zabezpechenni publicnoi bezpeky [The use of high technologies in ensuring public safety]. In *Vykorystannia tekhnolohii shtuchnoho intelektu u protydii zlochynnosti: Materialy naukovo-praktychnoho onlain-seminaru* [The use of artificial intelligence technologies in combating crime: Proceedings of the scientific and practical online seminar] (pp. 21–24). Pravo. <https://doi.org/10.33270/0122271.30>

Lesko, N. V. (2022). Suchasni informatsiini tekhnolohii v diialnosti prokuratury [Modern information technologies in the activities of the prosecutor's office]. *Visnyk Natsionalnoho universytetu "Lvivska politekhnika". Seriya: Yurydychni nauky* [Bulletin of Lviv Polytechnic National University. Series: Legal Sciences], 3(35), 155–160. <https://doi.org/10.23939/law2022.35.155>

Maiietnyi, M. I. (2021). Shtuchni neironni merezhi: Perspektivyvy vykorystannia v pravookhoronni diialnosti [Artificial neural networks: Prospects for use in law enforcement]. *Informatsiia i pravo* [Information and Law], 3(38), 74–81. [https://doi.org/10.37750/2616-6798.2021.3\(38\).243809](https://doi.org/10.37750/2616-6798.2021.3(38).243809)

Moiseev, A., Moiseeva, V., & Danilina, N. (2021). *Main trends in the digital transformation of prosecutor's offices and the organization of its activities*. In *1st International Scientific Conference "Digital Economy and Legal Regulation of Digital Relations: Problems and Development Prospects" (LARDER 2020)* (pp. 131–135). Atlantis Press.

Nalutsishin, V. (2025). Foreign experience in the application of artificial intelligence in the activities of law administrative bodies. *Socio-Economic Relations in the Digital Society*, 3(57), 94–103.

Ovchinnikov, A. I. (2019). Protivodeystvie korruptsii v usloviyakh tsifrovizatsii: vozmozhnosti, perspektivy, riski [Combating Corruption in the Context of Digitalization: Opportunities, Prospects, and Risks]. *Journal of Russian Law*, 11, 158–170.

President of the Republic of Uzbekistan. (2025, November 3). *Decree "On approving the 'Digital Procurement — 2030' strategy and measures for its effective implementation" (No. DP-204)*. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-7813706>

President of the Republic of Uzbekistan. (2026, March 10). *Decree "On defining the Cybersecurity Strategy of the Republic of Uzbekistan and improving the system of cybercrime prevention" (No. DP-38)*. Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-8079286>

Satorov, S. (2025). Advanced foreign experience in the implementation of artificial intelligence in the activities of prosecutor's offices. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 5(3), 164–175. <https://doi.org/10.37547/supsci-ohpl-05-03-17>

Tabolina, K., & Tabolin, V. (2021). *Digital transformation of the prosecutor's office and its impact on criminal proceedings*. In *1st International Scientific Conference "Legal Regulation of the Digital Economy and Digital Relations: Problems and Prospects of Development" (LARDER 2020)* (pp. 147–151). Atlantis Press.

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.